



O'ZBEKISTONDA AYOLLAR HUQUQLARINING RIVOJLANISHI TARIXIGA DOIR BAZI MASALALAR

Abdolnizayova Nilufar Davronbekovna,

Urganch innovatsion universiteti magistranti,

nilufarabdolnizayova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18412231>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 27-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 29-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

gender tengligi, xotin-qizlar huquqlari, ijtimoiy-siyosiy faollik, demokratik jamiyat, davlat siyosati, huquqiy asoslar, oila instituti, ayollarni himoya qilish...

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekistonda gender siyosatini amalga oshirish jarayonlari, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rni hamda mavqeini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda ayollar huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish, teng huquq va imkoniyatlar yaratish borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, gender tenglik siyosatining demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati hamda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali barqaror taraqqiyotga erishish imkoniyatlari asoslab beriladi

Ayollar muammosini hal etish va jamiyatni demokratlashtirish jarayonlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshirishini taqozo etadi. Demokratiya nafaqat ayol va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi, balki aynan shu sharoitda ayollarning o'zini namoyon etishining yangi ijtimoiy shakllari vujudga keladi. Bu esa ularning passiv "ijtimoiy himoya" obyektidan jamiyat taraqqiyotining faol subyektiga aylanishida muhim bosqich bo'lib, ayol maqomining o'zgarishi uchun zarur shart hisoblanadi. Mazkur masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov ayollarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini yuksaltirish, ularni e'zozlash, mehnatini yengillashtirish hamda hayot sharoitlarini yaxshilash davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri ekanini ta'kidlagan [1].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli tahlil, tarixiy-qiyoslash va statistik tadqiqot, umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Davlat va jamiyatning nufuzi, intellektual salohiyati hamda madaniy taraqqiyot darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar ko'p bo'lsa-da, har bir millat va xalqning ma'naviy yetukligini belgilovchi asosiy omil ayol shaxsidir. Xotin-qizlarga bo'lgan munosabat va ularga nisbatan hurmat-ehtirom darajasi, avvalo, davlat siyosatida va jamiyat hayotida ularning tutgan o'rni orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, ayollarni ulug'lash, ardoqlash va e'zozlashga asoslangan

ijtimoiy munosabatlar jamiyatning yuksak madaniyati hamda umuminsoniy qadriyatlarini amalda ifodalovchi muhim mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Ayollarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning turmush sharoitlarini yengillashtirish va ijtimoiy mavqeini mustahkamlash xalqimizning tarixiy va ma'naviy an'analariga asoslangan muqaddas qadriyat hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Qur'oni Karimning "Niso" surasida insoniyat ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etilishi chuqur ma'naviy mazmun kasb etishini ta'kidlab, xotin-qizlarni e'zozlash va qadrlash jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanini qayd etgan [2].

Bugungi kunda jamiyatda ayollar, onalar va xotin-qizlarni e'zozlash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy hamda ma'naviy manfaatlarini himoya qilish borasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. Global miqyosda esa OITS, giyohvandlik, uyushgan jinoyatchilik, davlatlararo siyosiy-iqtisodiy ziddiyatlar, etnomilliy va diniy mojarolar, fuqarolik urushlari kabi murakkab muammolar mavjud bo'lib, bunday sharoitda ayollarning "kichik" va "katta" siyosatdagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. Bu holat, avvalo, ayollarning ona sifatidagi mas'uliyati, farzandlar kelajagi va jamiyat barqarorligini ta'minlashga bo'lgan intilishi bilan izohlanadi.

Mazkur masalaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida alohida e'tibor qaratib, gender tenglik siyosati davlat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga aylanganini, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki tobora kuchayib borayotganini hamda yangi parlament tarkibida ayol deputatlar ulushi ikki barobarga oshganini ta'kidlagan [3].

Haqiqatan ham, O'zbekistonda mazkur yo'nalish davlat siyosatining ustuvor darajasiga ko'tarildi. Shu asosda so'nggi yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish borasida izchil va samarali choralar amalga oshirildi. Qisqa davr ichida ayollarning huquq va manfaatlarini kompleks tarzda ta'minlashga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mamlakatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirish, ularning turli soha va tarmoqlarda salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish hamda oila institutini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida oila va ayol omili muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi "Oila"ga bag'ishlangan bo'lib, undagi to'rtta modda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etgan [4].

Jamiyatda gender siyosatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi mustahkam huquqiy asoslar shakllantirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilinib, Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar ushbu yo'nalishdagi muhim normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi [5].

Mazkur qonunlarning asosiy maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, shuningdek, ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda

imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishdan iborat.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ayollar huquqlarini ta'minlash va gender tengligini qaror toptirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Mustaqillik yillarida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish uchun mustahkam asos yaratdi. Ayniqsa, ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish hamda erkaklar bilan teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlashga qaratilgan qonunlar jamiyatda gender tenglik tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faolligi ortib borayotgani demokratik islohotlarning samaradorligini ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar oila institutining mustahkamlanishi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, hamda jamiyat barqaror taraqqiyotining ta'minlanishiga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonda ayollar huquqlarining rivojlanishi tarixiy jarayon sifatida demokratik jamiyat barpo etish bilan uzviy bog'liq bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Karimovning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // "Xalq so'zi" -2016. -8 mar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // "Xalq so'zi" -2020. -8 mar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. // "Yangi O'zbekiston" -2020. -24 sen.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2014. -76 b.
5. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida", "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni // Xalq so'zi -2019. -3 sen.